# XALQ PEDAGOGIKASIDA MILLIY URF-ODAT VA ANʼANALARNING EʼZOZLANISHI, AVLODLARGA MEʼROS QOLDIRILISHI VA ULARNING BARQARORLIGINI TAʼMINLASH

**Mavlanova Mehnbonu Obid qizi**
*Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti*
**Qoryogʼdiyev Zufar Oxunjonovich**
*-ilmiy rahbar*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada "Milliy etiket"ni oʻquvchilarga yetkazish, ularni ongiga singdirish maqsadida ishlangan toʻgarak dasturi va bu qanday natija bergani toʻgʻrisidagi matematik statistik tahlil natijalari koʻrsatib oʻtilgan.*

**Kalit soʻzlar:** *Uzluksiz taʼlim, tarbiya, xalq amaliy sanʼati, urf-odat, bezak vositasi, ish reja, ijobiy natija, milliy gʼoya.*

# УВАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ОБЫЧАЕВ И ТРАДИЦИЙ В НАРОДНОЙ ПЕДАГОГИКЕ, ОСТАВЛЕНИЕ НАСЛЕДИЯ ПОКОЛЕНИЯМ И ОБЕСПЕЧЕНИЕ ИХ СТАБИЛЬНОСТИ.

**Мавлановой Мехнбону Обид кизи**
*Магистрантка Международного университета Азии.*
**Корёгдиев Зуфар Охунджонович**
*научный руководитель*

**Аннотация:** *В статье показаны результаты математического статистического анализа кружковой программы, предназначенной для донесения до учащихся «Национального этикета», привития его в сознании, и его результаты.*

**Ключевые слова:** *Непрерывное образование, образование, народное творчество, традиция, декоративное орудие, план работы, положительный результат, национальная идея.*

# RESPECTING NATIONAL CUSTOMS AND TRADITIONS IN PEOPLE'S PEDAGOGY, LEAVING A HERITAGE TO THE GENERATIONS AND ENSURING THEIR STABILITY.

**Mavlanova Mekhnbonu Obid qizi**
*is a graduate student of Asia International University*
**Koryogdiyev Zufar Okhunjonovich**
*Scientific supervisor*

**Annotation:** *This article shows the results of the mathematical statistical analysis of the circle program designed to convey "National Etiquette" to students, to inculcate them in their minds, and how it resulted.*

**Key words:** *Continuing education, education, folk art, tradition, decorative tool, work plan, positive result, national idea.*

Uzluksiz ta'lim tizimidagi ta'lim-tarbiya jarayonining bitiruvchisi muayyan soha bo'yicha bilim olishi va kasb-hunar egasi sifatida Vatan ravnaqiga hissa qo'shishi kerak. Respublikamizda qabul qilingan milliy g'oyaning yetakchi g'oyalaridan biri, yuqorida aytganimizdek, Vatan ravnaqi uchundir. Vatanimiz ravnaqiga hissa qo'shishni o'ziga qaror qilib olgan shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazishda milliy madaniyat va ma'naviyat muhim o'rin bo'lakcha.

Xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi, milliy me'morchilik, milliy teatr va musiqa, qo'shiqchilik va xalq raqs san'ati namunalarining falsafiy, psixologik va tarbiyaviy jihatlarini tushunish, mazmun-mohiyatini chuqur bilish uchun uni xalq pedagogikasi bilan bog'lab o'rganish kerak. Chunki yuqorida ta'kidlangan san'at va hunarmandchilik turlari xalq hayotining bevosita ifodasi bo'lib, xalqimizning ijtimoiy hayot haqidagi tushunchalarini, uning yuksak didini, estetik qarashlarini va shu bilan birga xalq pedagogikasining axloqiy tarbiya bilan bog'liq muhim qirralarini ko'rsatib beradi. Shuningdek, xalqimizning uzoq tarixi, urf-odatlari, keng dunyoqarashi, orzu umidlarini ham butun ulug'vorligi va teranligi bilan ko'rsatib, ular haqida keng, chuqur bilim beradi va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga, kasb-hunarga qiziqish uyg'otishda muhim manba hisoblanadi.

O'zbekistonda vujudga kelib, gullagan san'at turlari o'zining jozibadorligi va betakrorligi bilan dunyoga mashhur bo'lib, shulardan xalq amaliy san'ati xalqimizning to'rt asrlik tarixida madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi. Xalq amaliy san'atining mohir ustalari o'z asarlariga shunchaki ko'rk bermasdan, balki shu bezak vositasida o'z fikrlarini aks ettirganlar. Mavjud tarixiy obidalar, qo'lyozmalar, xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi namunalari fikrimiz isbotidir.

Milliy etiketni o'quvchilarga yetkazish, ularni ongiga singdirish maqsadida haftaning har juma kuni darslardan keyin sinf rahbari tomonidan qo'shincha ravishda o'tiladigan qisqa to'garak ish rejasi A.Qodiriyning "Turkiy guliston yoxut axloq" asari asosida shakllantirildi.

Quyida ko'rsatilgan ish reja asosida 1 o'quv yiliga moslashtirilgan 15 daqiqalik qisqa to'garak o'tildi.

| № | Mavzu | O'tiladiga<br>ɪa | qo'shimcha manbalar |
|---|---|---|---|
| 1 | AXLOQ | | Odob-axloq qoidalari. To'plam |
| 2 | XULQ | | Husni Xulq. Tohir Malik |
| 3 | YAXSHI XULQ,<br>ON XULQ | | https://islom.ziyouz.com/maqola/go-zal-xulq-fazilati-<br>ɔmon-xulq-mazammati |
| 4 | TARBIYA | | https://kitobxon.com/oz/kitob/tarbiya-kitobi |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 5 | TARBIYANING ONI | | Tarbiya oiladan boshlanadi |
| 6 | BADAN BIYASI | | https://e-library.namdu.uz/NamDU%20professor-uvchilar%202023/Bolalar_jismoniy_tarbiyasi_nazariyasi_exnologiyalari_2_%E2%80%94_14.pdf |
| 7 | AXLOQ BIYASI | | Odob-axloq kitobi. Jadidlar kitobi |
| 8 | YAXSHI XULQLAR | | Odob-axloq kitobi. Jadidlar kitobi |
| 9 | FATONAT | | Ustodi avval |
| 10 | ISLOMIYAT | | Islom tarixi |
| 11 | NAZOFAT | | Saodat asri nusxalari |
| 12 | RIYOZAT | | TASAVVUF VA ADABIYOTINING DINIY-FALSAFIY SLAR |
| 13 | SHIJOAT | | Odob-axloq kitobi. Jadidlar kitobi |
| 14 | QANOAT | | Odob-axloq qoidalari. To'plam |
| 15 | INTIZOM | | Odob-axloq qoidalari. To'plam |
| 16 | VIJDON | | Saodat asri nusxalari |
| 17 | VATANNI MAK | | Ustodi avval |
| 18 | HAYO | | Islomda sharm hayo |
| 19 | IDROK VA ZAKO | | TASAVVUF VA ADABIYOTINING DINIY-FALSAFIY SLAR |
| 20 | HIFZI LISON | | Milliy urf-odatlar kitobi |
| 21 | IQTISOD | | Islomda sharm hayo |
| 22 | VIQOR | | Islomda sharm hayo |
| 23 | XAVF VA RAJO | | Saodat asri nusxalari |
| 24 | ITOAT | | Islomda sharm hayo |
| 25 | HAQSHUNOSLIK | | Milliy bayramlar maqola |
| 26 | XAYRIXOHLIK | | Milliy urf-odatlar kitobi |
| 27 | MUNISLIK | | Milliy urf-odatlar kitobi |
| 28 | SADOQAT | | Sadoqat kitobi. Nilufar Alixonova |
| 29 | ADOLAT | | Adolat yo'li. Kitob |
| 30 | OLIY HIMMAT | | Milliy urf-odatlar kitobi |
| 31 | AFV | | Adolat yo'li. Kitob |
| 32 | YOMON XULQLAR | | Adolat yo'li. Kitob |
| 33 | JAHOLAT | | Jaholat asiri. |
| 34 | ATOLAT | | Jaholat asiri. |
| 35 | HASAD | | Adolat yo'li. Kitob |
| 36 | TAMA | | Adolat yo'li. Kitob |

Oʻtkazilgan yuqoridagi toʻgarakdan maqsad oʻquvchilarga milliy etiketni shakllantirish, ularni xulq-atvoriga tasir etayotgan ommaviy madaniyatdan kirib kelayotgan yod gʻoya va tushunchalarni cheklab qoʻyish, ishchi “Ego” yani “men”ini milliy madaniyat asosida qurish maqsad qilindi. Qisqa vaqt ichida oʻtilishi rejalashtirilgan bu usuldagi toʻgarak bolani zeriktirmaydigan turli misollar, qisqa davra suhbatlari, debatlar va qisqa maʼlumot berish tartibida amalga oshirildi.

Mashg‘ulotlar natijalari har chorak oxirida maktab psixologi Nurullayeva P. bilan hamkorlikda olib borilgan testlar natijalari o‘rganib borildi. Testlar Nurillayeva P. tomonidan tavsiya etildi va natijalar quyidaga jadvalda va diagrammada keltirildi.

| O'quv yili | Choraklar | Jinoyatchilak | | Ichki nazorat | | Notinch oila | | Voyaga | | Erta tug'ruq | | O'zaro janjal | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | soni | barcha o'quvchilarga nisbattan | soni | barcha o'quvchilarga nisbatt | soni | barcha o'quvchilarga nisbattan | soni | barcha o'quvchilarga nisbatta | soni | barcha o'quvchilarga nisbattan | soni | barcha o'quvchilarga nisbatta |
| 2023-2024 | I-chorak | 5 | 0,3 | 9 | 0,6 | 23 | 1,4 | 2 | 0,1 | 1 | 0,1 | 31 | 1,9 |
| | II-chorak | 4 | 0,3 | 7 | 0,4 | 22 | 1,4 | 0 | 0,0 | 1 | 0,1 | 20 | 1,3 |
| | III-chorak | 2 | 0,1 | 5 | 0,3 | 21 | 1,3 | 1 | 0,1 | 1 | 0,1 | 12 | 0,8 |
| | IV-chorak | 0 | 0,0 | 2 | 0,1 | 19 | 1,2 | 1 | 0,1 | 1 | 0,1 | 12 | 0,8 |
| jami | | 3 | 0,2 | 6 | 0,4 | 21 | 1,3 | 1 | 0,1 | 1 | 0,1 | 19 | 1,2 |
| 2022-2023 | I-chorak | 6 | 0,4 | 11 | 0,7 | 35 | 2,2 | 2 | 0,1 | 1 | 0,1 | 32 | 2,0 |
| | II-chorak | 3 | 0,2 | 8 | 0,5 | 32 | 2,0 | 2 | 0,1 | 1 | 0,1 | 41 | 2,6 |
| | III-chorak | 4 | 0,3 | 5 | 0,3 | 39 | 2,4 | 2 | 0,1 | 2 | 0,1 | 51 | 3,2 |
| | IV-chorak | 2 | 0,1 | 9 | 0,6 | 40 | 2,5 | 2 | 0,1 | 2 | 0,1 | 40 | 2,5 |
| jami | | 4 | 0,2 | 8 | 0,5 | 37 | 2,3 | 2 | 0,1 | 2 | 0,1 | 41 | 2,6 |
| 2021-2022 | I-chorak | 5 | 0,3 | 8 | 0,5 | 43 | 2,7 | 4 | 0,3 | 2 | 0,1 | 38 | 2,4 |
| | II-chorak | 4 | 0,3 | 10 | 0,6 | 36 | 2,3 | 5 | 0,3 | 2 | 0,1 | 29 | 1,8 |
| | III-chorak | 6 | 0,4 | 9 | 0,6 | 36 | 2,3 | 5 | 0,3 | 2 | 0,1 | 26 | 1,6 |
| | IV-chorak | 4 | 0,3 | 10 | 0,6 | 38 | 2,4 | 4 | 0,3 | 2 | 0,1 | 31 | 1,9 |
| jami | | 5 | 0,3 | 9 | 0,6 | 38 | 2,4 | 5 | 0,3 | 2 | 0,1 | 31 | 1,9 |
| 2020-2021 | I-chorak | 6 | 0,4 | 13 | 0,8 | 45 | 2,8 | 3 | 0,2 | 0 | 0,0 | 41 | 2,6 |
| | II-chorak | 4 | 0,3 | 12 | 0,8 | 43 | 2,7 | 5 | 0,3 | 0 | 0,0 | 39 | 2,4 |
| | III-chorak | 5 | 0,3 | 9 | 0,6 | 39 | 2,4 | 6 | 0,4 | 2 | 0,1 | 39 | 2,4 |
| | IV-chorak | 3 | 0,2 | 6 | 0,4 | 38 | 2,4 | 4 | 0,3 | 2 | 0,1 | 42 | 2,6 |
| jami | | 5 | 0,3 | 10 | 0,6 | 41 | 2,6 | 5 | 0,3 | 1 | 0,1 | 40 | 2,5 |




Yuqoridagi keltirilgan statistik natijalarga asoslangan jadvalda ko‘rinib turibdiki, qisqa to‘garak shaklida 1 yil davomida o‘tilgan mashqlarni diagrammasi tuzildi. Bunda

6 ta koʻrsatkichga koʻra chiziqlar oʻgarishiga guvoh boʻlamiz. Moviy rang bilan belgilangan “Jinoyatchilik” ustunida 2020-oʻquv yildan boshlab 2024-oʻquv yili oxirigacha boʻlgan natijalari koʻrinib turibdi. Bunda jinoyatchilik 6 tadan 0 tagacha oʻzgarganini, ikkinchi ustun “Ichki nazorat” da turuvchilar sabzi rang chiziq bilan belgilangan koʻrsatkich 13 tadan 2 taga tushgani va foiz umummiy oʻquvchilar soniga nisbattan 0,8 dan 0,1 foizga pasaygani koʻrinib turibdi. Shu bilan birga notinj oila (kulrang chiziq) koʻrsatkichi 45 tan 19 taga, foiz boʻyicha 2,8 da 1,2 ga; voyaga yetmaganlar nazorati (sariq rang) 3 tandan 1 taga, foiz boʻyicha 0,2 dan 0,1 ga; erta tugʻruq (koʻk rang) 2 dan 1 taga; oʻzaro janjallar (yashil rang) 41 tadan 12 taga, foizda 2,6 dan 0,8 ga tushdi.

Yuqoridagi izohlardan koʻrinib turibdiki milliy etiketni oʻz ichida mujassamlashtirgan darsdan keyin oʻtiladigan qisqa toʻgarak ijobiy natija koʻrsatdi. Buni isboti matematik hisob kitob usulida aks ettirildi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. A.Qodiriyning “Turkiy guliston yoxut axloq”.Toshkent. 1998.
2. Xudoyqulov Xol Jumayevich, Xolov Olimjon Chorshamiyevich. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Termiz. 2010,3,4-betlar.
3. Esonov Olimjon Abdullajonovich. Yoshlarda milliy qadriyatlarga jalb qilish darajasini oʻrganish. (maqola) Andijon. 2020
4. N.Jo’rayev, M.Hoshimov, M.Hakimova, G.Ochilov, G.Musaxonova. Pedagogika. Toshkent-2007,7-bet.